

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 657.62:658:622(575.1)**

SOBIROV OTABEK OLIMJONOVICH

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BOSHQARUV HISOB
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08–Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor A.X.Pardayev

TOSHKENT – 2026

MUNDARIJA:

	KIRISH	3
I BOB.	BOSHQARUV HISOBINING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	16
1.1	Boshqaruv hisobini mohiyati, vazifalari va uni tashkil etishning nazariy asoslari	16
1.2	Globalashuv sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil qilish zaruriyati	35
1.3	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari	44
1.4	Boshqaruv hisobini tashkil etishning xorij tajribasi va uni mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlari	52
	I bob bo‘yicha xulosa	60
II BOB	XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING FAOLIYAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI TAHLILI	62
2.1	Boshqaruv hisobining hisob-tahlil tizimini tashkil etish asoslari	62
2.2	Boshqaruv hisobida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi	69
2.3	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda boshqaruv hisobini tashkil qilishning xususiyatlari va afzalliklari	78
2.4	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini ko‘p omilli tahlili	96
	II bob bo‘yicha xulosa	117
III BOB	BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	119
3.1	Boshqaruv hisobida byudjetlashtirish va unda balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimini qo‘llash	119
3.2	Xarajat va daromadning boshqaruv hisobini tashkil qilish	136
3.3	Boshqaruv hisobida moliyaviy oqimlarni boshqarishni tashkil etish	148
	III bob bo‘yicha xulosa	156
IV BOB	BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	160
4.1	Boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish	160
4.2	Boshqaruv hisobida bilimlar strategiyasi va uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi	166
4.3	Boshqaruv hisobi axborot ta’minotining metodologik asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlari	177
	IV bob bo‘yicha xulosa	190
	Xulosalar	191
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	199
	Ilovalar	216

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayoni xo‘jalik yurituvchi subyektlardan o‘z maqsadlarini amalga oshirish va kuchli raqobat muhitida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun samarali tizimga ega bo‘lgan uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategik rivojlanish yo‘nalishlarini o‘z oldiga belgilab olishni taqazo etmoqda. Chunki, rivojlangan bozor munosabatlariga ega mamlakatlarda mazkur tadbir “...kompaniyalar muvaffaqiyatining asosiy omili bo‘lib, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tezkor va ishonchli ma‘lumotlarni olish hamda muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratib kelmoqda”¹. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarning nufuzli brend kompaniyalarida zamonaviy va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini ta‘minlash uchun sohaga mas‘ul bo‘lgan buxgalter-tahlilchilarning strategik tarzda fikrlay olish va mulohaza qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bosh omil sifatida qarab kelinmoqda. Buxgalter-tahlilchilar tayyorlaydigan ma‘lumotlar tizimi – tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tashqi omillar ta‘sirini hisobga olish, baholash va tahlil qilish natijalaridan kelib chiqib xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ichki resurslaridan yanada samarali foydalanish rejalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi ana shunday omillar yig‘indisi hamda bosh mezon hisoblangan boshqaruv hisobini samarali tarzda tashkil qilish va yuritish hamda uni xalqaro hisob amaliyotida qo‘llanilayotgan tajribalardan milliy iqtisodiyotimizga mos bo‘lgan usullarini joriy qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Jahonda kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblangan boshqaruv hisobi usullari va strategiyasini optimallashtirish borasidagi muammolarini hal qilish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan va bu tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Shu bilan birga ta‘kidlash joizki, hisob va tahlil sohasidagi amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar boshqaruv hisobining amaliy

¹ Друри К. Управленческий учет для бизнес-решений: Учебник / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. - 665 с. – (Серия «Зарубежник учебник»). Стр. 567-569.

jihatlarini atroflicha yoritib bera olmaydi, uning uslubiy asoslari zamonaviy raqobat muhiti talablariga to'liq javob bermayotganligi yaqqol ko'rinmoqda. Boshqaruv hisobining ayrim jihatlarini bo'yicha nazariy va amaliy ishlanmalarning yetarli emasligi, shuningdek strategik menejmentning roli tobora ortib borayotgan sharoitda dunyo miqyosida kompaniyalarning mazkur hisob turiga bo'lgan qiziqishining kuchayishi boshqaruv hisobi nazariyasi va amaliyotini yanada chuqurroq tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, milliy hisob tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiqlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi². Shu munosabat bilan rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlarda samarali shakllantirilgan boshqaruv hisobini mamlakatimiz amaliyotiga keng joriy etish va uni rivojlantirish dozarb hisoblanadi. Boshqaruv hisobi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bugungi kunda mamlakatimizda boshqaruv hisobi o'zining shakllanish jarayonida ekanligi va uning nafaqat amaliy jihatlarini, balki bir qator nazariy hamda uslubiy masalalari ham o'zining ijobiy yechimini kutayotganligini ko'rsatmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini kelgusi yillarda yanada rivojlantirish omillaridan biri sifatida - xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish va mavjud resurslardan samarali foydalanish hisoblanadi. Bu borada yurtimizda faoliyat yurituvchi yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar alohida ahamiyatga ega va ularni mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni katta. Ularga "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJlarni misol qilishimiz mumkin. Mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlar 2024-yil yakunlari bo'yicha yirik soliq to'lovchilar uchtaligiga kirgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

Ular kabi yirik subyektlar faoliyati barqarorligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-son "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrdagi №1047-son "Navoiy KMK" davlat korxonasining 2020-2021-yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2015-yil 28-iyuldagi №207-son "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarish hamda sohadagi islohotlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.